



## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

### SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



## ARAB MAQOLLARIGA OID TADQIQOTLAR

*Sarvinoz Qosimova*

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** masal, matal,

mitala, misl, hikma, nodira, qavl,  
va'z.

**Annotatsiya:** Mazkur maqola arab tilshunosligida muhim

o'rin tutgan maqollarga bag'ishlangan. Ularning kelib chiqishi va ma'nolariga oid ma'lumotlar tahlil etilgan. Ma'lumki, maqollarni islomgacha va islomning ilk davridagi qadimiy maqollar, aralash yoki yangi hamda zamonaviy maqollar guruhiga ajratadilar. Arab maqollari boshqa xalqning hikmatlarini ham qamrab olgani bois, qiyosiy o'rganish obyekti bo'lishi mumkin. Arab maqollarini tadqiq etish VIII asrdan boshlangan bo'lib, yurtimiz ulamolari ham maqollarga oid ko'plab tadqiqotlar olib borishgan. Ularni o'rganish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

## RESEARCH ON ARABIC PROVERBS

*Sarvinoz Kasimova*

*Doctor of Philosophy (PhD) in Philology,*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** masal, matal,

mitala, misl, hikma, nodira, kavl,  
vaz

**Abstract:** This article is devoted to articles that occupy an important place in Arabic linguistics. Information on their origin and values was analyzed. As you know, articles are divided into ancient articles, mixed or Yang and modern articles before Islam and the early period of Islam. Arabic articles can be the subject of comparative study, as they cover the stories of other peoples. The study of Arabic articles began in the 8th century, while numerous studies of articles were carried out in our country. Their study is one of the urgent problems of today.

## ИССЛЕДОВАНИЯ ОБ АРАБСКИХ ПОСЛОВИЦАХ

**Сарвиноз Косимова**

доктор философии (PhD) по филологическим наукам,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** масал, матал, митала, мисл, хикма, нодира, кавл, ваъз

**Аннотация:** Данная статья посвящена статьям, занимающим важное место в арабском языкознании. Проанализирована информация об их происхождении и значениях. Как известно, статьи разделяют на древние статьи, смешанные или янские и современные статьи до ислама и раннего периода ислама. Арабские статьи могут стать объектом сравнительного изучения, так как они охватывают и истории других народов. Изучение арабских статей началось с 8 века, в то время как в нашей стране были проведены многочисленные исследования статей. Их изучение является одной из актуальных проблем сегодняшнего дня.

## KIRISH

Maqol – sifatli fikr ifodasi bo‘lib, X.R.P. Diksonning fikriga ko‘ra “arablar maqollarni keltirganlarida, tarixni gapirib berayotganlardek huzurlanadilar”. Adabiyotshunoslar maqollarni masal, matal, mitala, misl, hikma, nodira, qavl, va‘z kabi bir qator terminlar bilan ataydilar va maqollarni: 1) islomgacha va islomning ilk davridagi qadimiy maqollar, 2) aralash yoki yangi va 3) zamonaviy maqollar guruhiga ajratadilar. Arab maqollari boshqa xalqning hikmatlarini ham qamrab olganliklari bois, qiyosiy o‘rganish ob‘ekti bo‘lishlari mumkin. Arab maqollarini tadqiq etish VIII asrdan boshlangan. Arab adibi Ubayd Jurjumiy (VIII asr) Sahar ibn Dabiy, fors adibi Abu Fadl Maydoniy kabi bir qator olimlar kabi Mahmud Zamaxshariy ham “al-Mustaqso min amsali-arab” nomli kitobini tuzgan. Unda turli davr poemalaridan tashqari “Kalila va Dimna” kitobidan ham parchalar keltirgan. Arab maqollari borasida quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

ان وراء الاكمة ما وراءها – so‘zma so‘z: Darhaqiqat, tog‘ ortida uning ortidagidir. Mazkur maqolning kelib chiqishi: Bir cho‘ri barcha ishlarini tugatishi bilanoq, tunda tog‘ ortida do‘sti bilan ko‘rishishni va‘da qiladi. Biroq bu cho‘rini ish bilan ko‘mib qo‘yishganligi bois, u o‘z va‘dasini bajara olmaydi. Alamidan u: Meni ushlab qolishdi, tog‘ ortida esa tog‘ ortidagidir deydi.<sup>1</sup> Bu maqol bilgan va bilmagan holda o‘z rejalarini namoyish qiladiganlarga aytiladi.

انما خَدَّتْ الخُدُوشَ اُنُوشُ – so‘zma-so‘z: U Anush xatini timdaladi. Xadsh bu qadimiy adabiy yodgorlikdir. Anush esa Shising o‘g‘li, ya‘ni Adamning nevarasi. U adabiy asarlarni yozishni boshlaganlarning birinchisi bo‘lib, bu maqol vaqti o‘tgan narsani ifodalashda qo‘llanadi.

بقي اشدّه – eng qiyini qoldi. Buning tarixi: qadimda sichqonlarni ovlaydigan mushuk bo‘lgan. Undan qutilish maqsadida sichqonlar uning bo‘yininga qo‘ng‘iroqcha osishni maqsad qilishgan. Hamma rozi bo‘lgan. Oxirida kim iladi uni, deganda shu iborani aytgan.

<sup>1</sup> أبيبيك، نوالى، ترجمة غائب نعمة فرمان، طشقند، ۱۹۷۹

ابلق من قس Qus ibn Sagida – arablarning eng mashhur donishmandlaridan biri. U kishilar orasida birinchi bo'lib o'zaro xat yozishni boshlagan. U 180 yil yashagan.

اليوم خمر و غذا أمر

So'zma-so'z tarjimasi: Bugun may ertaga buyruq, ya'ni: Tun ortidan tong keladi; qorong'ulikdan keyin yorug'ik, hafagarchilik ortidan xursandchilik keladi; afsuslanishda ham umid bor; xursandchilik ham hafagarchilik ham birga keladi. Bizningcha bu o'zbek tilidagi "Oyning yarmi yorug', yarmi qorong'u" maqoliga to'g'ri keladi.

Bu maqol qadimiy maqollar turiga kiradi. Uni Nizomiy, Sa'diy kabi adiblar ham asarlarida tavsiflaganlar.

Shuningdek, maqollar arab madaniyatini, urf-odatini, odamlarining o'zaro munosabatini aks ettiradigan, ijtimoiy ahamiyatga ega, masalan:

إنّ البغاث بارضنا يستنسر

So'zma-so'z: Darhaqiqat kichik chumchuqlar ham zaminimizda burgutga aylanadi.<sup>2</sup>

Baranov lug'atida "pashshadan fil yasamoq" ma'nosini bergan. Arablar maqollar izohida "Zaif kuchli bo'ladi, yerga urilgan yerga urilishdan keyin aziz bo'ladi", ya'ni zaiflik va yerga urilishdan keyin kuchli va hurmatli bo'lgan kimsa haqida.

Nazarimizda, qaysi vaziyatda ishlatilishiga qarab bu ikki ma'no ham qo'llanishi mumkin.

Ba'zi maqollarning paralellari ham bor. Masalan:

so'zma-so'z: yomonlikda yaxshilik bor. Baranov lug'atida: Bir yomonlik ikkinchisidan ko'ra ahamiyatsizdir, deb beradi. Arablar: yomonlikning ham yaxshiligi bor, qabilida ishlaradilar. Bizningcha "Bir tanganing ikki tarafi bor" ma'nosiga to'g'ri keladi.

Bunga aks bo'lgan maqol: ان في الحسن شقوة – so'zma-so'z: darhaqiqat yaxshilikda baxtsizlik bor. Yaxshilikka yomonlik ma'nolari mavjud.

O'rta asrlarda maqollar islom dini etikasini ifodalay boshladi. Masalan: رأس الدين تقوى – Dinnig asosi taqvodir yoki من صدق الله نجا – kimki, Allohga sodiq bo'lsa najot topadi.

Bu davrdan boshlab arab maqollarida ayollarning o'rni borasida ham maqollar ko'paydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, arab maqollarining 23 % ayollarning maqtoviga bag'ishlangan.

Masalan: ان النساء لحم على و صم – so'zma-so'z: ayol kishi qassob uchun go'shtdir. Bu maqol Umar roziyallohu anhudan bo'lib, ayol kishi hech qachon tanish bo'lmagan erkak bilan bir yerda qolmasligi haqidadir.

so'zma-so'z: Ayol erkakning do'stidir. Ya'ni: Ayol erkakning yarmidir, ular kabidir va ularning ham huquq va vazifalari borligini bildiradi.

Maqollarning 10 % hayvonlar haqida bo'lib, لکل الطور الابيض - Men oq buqa yeyilgan kuni yeyilganman.<sup>3</sup>

Ya'ni: O'rmonda uchta: oq, qora va malla buqa yashagan. Sher ular atrofida yashab, ularga hujum qilishga harakat qilgan. Buqalar bir-birlarini himoya qilganlar. Bittasi hamma uchun hamma bittasi uchun kabi. Sher hiyla ishlatishni maqsad qilib, qora va malla buqaga: bizning ranglarimiz o'xshash, oq buqaning rangi esa oq, biz uchun u juda xavfli, chunki u ovchilarning e'tiborini qaratishi mumkin, men uni yeb qoyishimga ruxsat beringlar, deydi. Ular rozi bo'ladi. Keyin sher malla rangli buqaga ham qora buqa haqida shunday taklifni beradi. U ham rozi

<sup>2</sup> الجاحظ، "كتاب الحيوان" ٢٨٦ ص. ح-1

<sup>3</sup> الجاحظ، "كتاب الحيوان" ٢٨٦ ص. ح-1

bo'lib, qora buqani himoya qilmaydi. Sher uni ham yeydi. Vaqt kelib sher malla buqaga endi seni yeyman deganida, malla buqa: men buni oq buqa yeyilgan kun bilgandim, deydi.

Abulqosim Mahmud ibn Umar Zamaxshariy - buyuk o'zbek olimi, arabshunos, shoir va yozuvchidir. Zamaxshariy arab tilshunosligi rivojiga katta hissa qo'shgan allomalardandir.<sup>4</sup>

Mahmud Zamaxshariy o'z ijodining katta qismini arab tilshunosligiga oid morfologiya, sintaksis, fonetika va lug'atshunoslikka bag'ishlab, shu mavzuda noyob asarlarni meros qilib qoldirgan<sup>5</sup> bo'lsa-da, arab maqollariga bag'ishlangan asar ham yozgan.

Zamaxshariy arab maqollarini yig'ib, o'rganish borasida ko'p mehnat qilib "Al-mustaqso fi amsoli-l-arab" ("*Arab maqollarini nihoyasiga yetkazuvchi*") nomli asarini yozgan. Unda uch yarim mingga yaqin arab maqoli alifbo tartibida berilgan.

Zamaxshariy sinchkov olim ekanidan tashqari, mohir yozuvchi va shoir ham bo'lgan. Uning arab tili, adabiyoti va uslubi sohasidagi bilimlari badiiy asarlarida yaqqol aks etgan. Zamaxshariyning "Navobiru-l-halim" ("*Hikmatli so'zlar*"), "Maqomatu-z-Zamaxshariy" ("*Zamaxshariy maqomatlari*"), "Atvoqu-z-zahab fi-l-mavo'iz va-l-xutab" ("*O'git va nasihatlarning oltin munchoqlari*") "Rabiu-l-abror" ("*Sahiy yoz*") kabi asarlari uning turli janrlarda ijod etgan nozik ta'b adib bo'lganini ko'rsatadi.

Zamaxshariyning "Atvoqu-z-zahab fi-l-movo'iz va-l-xutab" nomli falsafiy-didaktik asari tarbiyaviy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Unda yuzta maqol mavjud bo'lib, ular va'z-nasihat, hikmatli so'zlar, masal va maqolalardan, olimning ko'p yillik sayohati natijasida va umr bo'yi eshitgan, ko'rgan va boshidan kechirgan voqealarning tafsilotidan iborat.<sup>6</sup>

Zamaxshariy kishilarni halollik va rostgo'ylikka, to'g'rilikka, adolatli, insofli bo'lishga da'vat etib:

*«Og'zingni misvok (tish yuvgich cho'p) bilan pok qilding, koshki edi uni yolg'on, g'iybat, chaqimchilik, bo'hton bilan iflos qilmasang», — deydi.*

Shu bilan birga, insonning qadrini oshiruvchi ham, pasaytiruvchi ham til ekanligini qayd etib:

*«Tilingni tiymasang, jilovingni shaytonga berib qo'yasan».*

*«Qilichning yarqirog'ini zang yeydi».*

*«Yolg'on so'z esa tilning zangidan ham yomonroqdir».*

*«Yolg'on gapirib g'alaba qozonganingdan ko'ra, rost gapirib yomonlikka uchraganing ma'kul».*

*«Rostgo'y odamga uning rostgo'yiligi kifoya, yolg'onchiga esa uning yolg'onchiligi yetarlidir», — deydi.<sup>7</sup>*

Mahmud Zamaxshariyning ilmiy merosiga bo'lgan qiziqish XIX asr oxirlaridan boshlab kuchaydi. Vatandoshimizning ijodi bilan rus sharqshunoslari V.V. Bartold, I.Yu. Krachkovskiy, A.A. Borovkov, A. Krimskiy, V.L. Vyatkin; g'arb olimlaridan K. Brokkelman, Bensing, Goldsiyer, Vetshteyn, Poppe, Nyoldeke, Rayt, Zayonchikovskiy shug'ullanganlar.<sup>8</sup>

Arab yozuvi Movarounnahrda kirib kelganidan boshlab XIII asrlarga qadar bu yozuvda bitilgan birorta turkiy tildagi hujjat, manba hozirgacha ma'lum emas. XIII asrga qadar mazkur yozuvdagi barcha manbalar asosan arab tilida va qisman fors-tojik tilida kitobot qilingan.

<sup>4</sup> Qodirov T.Sh., Aliyev D.I. «Arab tili leksikologiyasi». Toshkent 2010.

<sup>5</sup> Nosirova M. «O'rta asr arab navhidan namunalari». -Toshkent, 2004. -B. 6.

<sup>6</sup> [http://library.tuit.uz/skanir\\_knigi/book/pedagogika\\_tarihi/ped1.htm](http://library.tuit.uz/skanir_knigi/book/pedagogika_tarihi/ped1.htm)

<sup>7</sup> [http://library.tuit.uz/skanir\\_knigi/book/pedagogika\\_tarihi/ped1.htm](http://library.tuit.uz/skanir_knigi/book/pedagogika_tarihi/ped1.htm)

<sup>8</sup> Nosirova M. «O'rta asr arab navhidan namunalari». -Toshkent, 2004. -B. 7

XI asr boshlarida Markaziy Osiyoda turkiy xalq, qabila va urug'larning yirik markazlashgan davlati – Qorahoniylar sulolasi tashkil bo'lishi bilan eski turkiy tilning nufuzi oshdi, uning yuksak adabiy til darajasiga olib chiqish jarayonida qator olimu shoirlar yetishib chiqdi. Bularga XI-XII asrlarda ijod qilgan Mahmud Qashg'ariy, Yusuf Hos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy ijodlarini ko'rsatish mumkin. Bu mualliflarning asarlari ham o'zlari yashab ijod etgan XI-XII asrlar kitobot til mahsuloti sifatida emas, balki XIII asrdan boshlab ko'chirilgan qo'lyozmalar orqali yetib kelgan. Demak, arab yozuvida yaratilgan hozirgi turkiy qo'lyozmalar kitobotlarining tarixi XIII asrdan boshlanadi.

Biz quyida ulug' turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumqulining arab tilida bitilgan (maqollarga bag'ishlangan) asari, haqida fikr yuritmoqchimiz.

Maxtumquli xalq maqol-matallari, hikmatli so'zlari, obrazli iboralarini juda yaxshi biladi va mahorat bilan she'rlari qatiga singdirib yuboradi. Ayni paytda, o'zi ham sodda, ixcham, lo'nda, teran hikmatlar yaratadiki, ular nafaqat turkman balki barcha turkiy xalqlarning hikmatli so'zlar xazinasidan joy olgan:

*Olimga yondashsang, ochilar ko'zing,  
Johilga yondashsang, ko'rdek bo'larsan.*

Shoir she'rlarida yaxshi-yomon, mard-nomard, halol-harom, boy-kambag'al, urush-tinchlik kabi o'zaro zid tushunchalar ko'p uchraydi. Xususan, u kishilarni ikki toifaga: mard va nomardga ajratadi: uning nazarida mard - barcha ezgu insoniy fazilatlar sohibi bo'lsa, nomard - hamma yomon illatlar tajassumi. Shunga muvofiq, mardni ko'plab she'rlarida ulug'lagani holda, nomardni keskin tanqid qiladi. Bu ikkisini ikki qutbga qo'yib tasvirlaydi.

*Yuz nomard joyini bosmas bir mardning,  
Chekar tashvishini mard elu yurtning.  
Qilgan qilig'ini ko'ring nomardning:  
Jangmi deya qochar tuman uchrasa...  
Mard kutar mehmonni ochiq yuz bilan,  
Nomard qochib qolar mehmon uchrasa.*

Taniqli sharqshunos olim Ye.Bertelsning yozishicha, Maxtumquli adabiy merosining umumiy miqdori taxminan 16-18 ming misraga yetadi. A.Boboyev shoirning 700ga yaqin lirik asarlari bizgacha yetib kelganligi haqida ma'lumot beradi. O'zbek olimasi S.Shukrullayeva esa sobiq qo'lyozmalar instituti (hozirgi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Hamid Sulaymon fondi) dagi 1997-raqamli qo'lyozmada shoirning 900 dan ortiq she'ru g'azallari mavjudligi to'g'risida xabar bergan edi. Maxtumquli ijodi ko'plab chashmalardan suv ichgan: ular - Qur'oni karim va unga yozilgan tafsirlar. Hadisi sharif va diniy adabiyotlar, tasavvuf falsafasi va adabiyoti, Sharq mumtoz so'z san'ati va xalq og'zaki ijodi.

Uning asarlarini Suriyada ham, Iroqda ham, Turkiya va Eronda ham, Afg'oniston va hatto uzoq Arabistonda ham turkmanlar faxr bilan kuylaydilar.

Maxtumquli barcha turkiy xalqlar qatori, o'zbek xalqining ham o'z shoiriga aylanib ketgan. Shoir she'rlari xalqimiz orasida asrlar davomida mashhur bo'lgan. Asarlarining qo'lyozmalari keng tarqalib, "toshbosmada ham Xiva va Toshkent shaharlarida bir necha bor nashr qilingan, bir necha o'nlab asarlari Toshkentda chiqadigan «Turkiston viloyatining gazetisi» ida e'lon qilingan». Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida Maxtumquli she'rlarini o'z ichiga olgan 5 ta qo'lyozma saqlanadi.



Maxtumquli she'rlari Jumaniyoz Sharipov, Jumaniyoz Jabborov, Muzaffar Ahmedov, Mirzo Kenjabek tarjimalarida o'zbek tilida bir mecha marta chop etilgan, turli majmua va darsliklarga kiritilgan.<sup>9</sup>

Endi Maxtumqulining izdoshi, shoir Yusuf Xos Hojib haqida to'xtalmoqchimiz.

Yusuf Xos Hojib XI asrning atoqli shoiri, donishmandi va davlat arbobidir. Undan bizga qadar yetib kelgan yagona adabiy meros "Qutadg'u bilig" dostonidir. Bu doston XI asr adabiyoti va adabiy tilining nodir yodgorligi bo'lib, zamonasining taraqqiyparvar ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy qarashlarini badiiy mujassamlashtiradi, tarix, ilm-fan, etnografiya va boshqa sohalarga doir qimmatli ma'lumotlar beradi.

Yusuf Xos Hojibning hayoti va faoliyati, haqida ma'lumot beruvchi yagona manba uning "Qutadg'u bilig" ("*Saodatga eltuvchi bilim*") dostonidir. Bu doston hijriy yil hisobi bilan 462(melodiy 1069-70) yilda yozilgan. Muallif dostonning muqaddimasida yoshi ellikdan oshganligini ta'kidlaydi. Shunga asoslanib, Yusuf Xos Hojib XI asrning 20-yillari arafasida tug'ilgan, deb ayta olamiz.

Yusuf Xos Hojib o'z vatandoshi, ulug' olim Mahmud Koshg'ariy singari turkiy qabila va xalqlarning tilining madaniy hayotda yanada kengroq o'rin olishi uchun kurashdi, xalq og'zaki adabiyoti va yozma adabiyotning boy tajriba an'alaridan ta'lim olib, mashhur "Qutadg'u bilig" dostonini yaratadi. Bu doston turkiy tildagi yozma adabiyotning ilk yirik asarlaridan biri edi. Mana shu jihatidan ham alohida tahsinga sazovordir. Yusuf Xos Hojibning o'zi dostonning muqaddimasida:

*Arabcha, tojikcha kitoblar o'qush,  
Bizning tilimizga bu yumg'i o'qush.*

Mazmuni:

«*Arabcha, tojikcha kitoblar ko'p bo'lib, bizning tilimizda bu donishmandlikning birinchi to'plamidir*», -degan edi.

Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" dostonini yaratar ekan, u qoraxoniylar davlati hokimiyatini mustahkamlash, Tavg'achxon bilan Ilekxonlar o'rtasidagi ixtiloflarni bartaraf etish, hukmron doiralarning turli ijtimoiy tabaqalarga munosabatini belgilash, ma'lumot va obodonchilik uchun kurash, yaxshi xulq-odobni targ'ib qilish kabi maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan edi.

"Qutadg'u bilig" ni o'rganish va uni tahlil etishda fransuz olimi Jaubert Amades (1823-yil "Osiyo jurnali" da bir qismini chop etgan), vengr olimi G.Vamberi (1870-yili asli va nemischa tarjimasini bilan nashr ettiradi), rus turkshunosi V.V.Radlov ("Qutadg'u bilig" bilan 20 yil shug'ullandi, 1890-yili to'liq nashr ettirdi), Fitrat ("O'zbek adabiyoti namunalari", 1928-yili nashr etdi), S.Ye.Malov ("Qadimgi turk yozuvi yodgorliklari", 1951), Qayum Karimov (1971-yili Namangan nusxasi asosida chop ettirdi), Ye.E. Bertels, A. Valitova, S. Muttalibov va boshqalar unumli xizmat qildilar.

"Qutadg'u bilig" ning muqaddimasida ta'kidlanishicha, dostonda to'rt asosiy masala qo'yilgan va bu masalalar majoziy timsollar qiyofasida mujassamlashtirilgan: biri-adl, ikkinchisi-davlat, uchinchisi-aql, to'rtinchisi - qanoat.

Doston muallifi til odobi, sevgi va sadoqat, rostgo'ylik va halollik kabi masalalar haqida hikmatli so'zlar so'zlaydi, mayxo'rlik va mutakabbirlikni tanqid qiladi. "Qutadg'u bilig" ning bir necha bobini bevosita axloq va odob masalalariga bag'ishlangan. Unda shoir o'qish va bilim olishda

<sup>9</sup> <http://e-adabiyot.uz/jahon/jahon-adabiyoti-tarixi/173-mahtumquli.html>

tilning ahamiyati, qisqa va mazmunli soʻzlash, tilga ortiqcha erk bermaslik va boshqalar haqida ibratli oʻgʻitlar beradi: oʻqishga, bilimga tarjimon tildir; kishini roʻshnolikka chiqaruvchi, eʼzozlovchi, baxtli qiluvchi tildir; kishini til qadrsiz qiladi, boshini yoradi; til qafasda yotgan arslonga oʻxshaydi, u boshingni yeyishi mumkin:

*Soʻzingga ehtiyot boʻl, boshing ketmasin,*

*Tilingga ehtiyot boʻl, tishing sinmasin.*

Yusuf Xos Hojib oʻz davrining axloqiy-taʼlimiy qarashlarini ilgari surgan atoqli maʼrifatparvar va murabbiy edi.<sup>10</sup>

Ulugʻ va mutafakkir bobokalonimiz Alisher Navoiy ham maqollar mavzusida asar yozgan. Bu asar Navoiyning umri oxirlarida yozilgan boʻlib, uning oʻzi bu asarni maqolatnoma “Mahbub ul - qulub” (*Koʻngillar sevgilisi*) dir deb atagan. Asar 906 hijriy – 1500 melodiy yilda yozilgan.

*Bu nomagʻakim, lisonim oʻldi qoyil,*

*Kilkim tili har navʻ el ishiga, noqil.*

*Tarixi, chu “xush” lafzidin oʻldi hosil*

*Har kim oʻqusa, Iloho, oʻlgʻay xushdil.*

“Xush” soʻzining arab alifbosidagi shakli abjad hisobida 906 ni ifoda etadiki, bu milodiy 1500-yilga tengdir.

“Mahbub ul-qulub” kirish, uch qism va xotimadan iborat.

“Mahbub ul-qulub”ning uchinchi qismi turli foidalar va masallar deb atalib, unda 127 tanbeh keltirilgan. Uchinchi qismdagi tanbehlar kitobning birinchi va ikkinchi qismlarida bayon etilgan ijtimoiy-falsafiy qarashlarni hikmatli soʻzlar darajasidagi axloqiy-tarbiyaviy gaplarda yanada kengaytiradi, umumlashtiradi. Shu jihatdan uchinchi qism Alisher Navoiyning hikmatli soʻz va maqollari toʻplangan hamda asarni oʻziga xos tarzda yakunlagan qismdir. Quyida uchinchi qismdan ayrim namunalar keltirsak:

*Tilga ixtiyorsiz – elga eʼtiborsiz;*

*Salotin dargohidin yiroq va xavoqin bazmgohidin qiroq, balki tegrasiga yovumagʻon yaxshiroq;*

*Koʻngul maxzanining qufli til va ul maxzanning kalidin soʻz bil;*

*Chin soʻz – moʻtabar, yaxshi soʻz- muxtasar;*

*Xiradmand uldurkim, yolgʻon demas, ammo barcha chin deguluk ham emas;*

*Gʻiybat deguvchi – najosat yeguvchi. Afyuniyu bangi-odamiylar nangi;*

*Er kishiga zebu ziynat – hikmatu donishdur.*

*Yaxshi kiymak birla xotinlargʻa oroyishdur.<sup>11</sup>*

Markaziy Osiyo xalqlarining, shu jumladan, oʻzbek xalqining madaniyati, maʼrifati, milliy qadriyati osori-atiqalarini oʻrganib, shular haqida oʻlmas asarlar yaratgan tarixshunos, sharqshunos olimlar — Gerodot, Xerman Vamberi, A.Yu.Yakubovskiy, S.P.Tolstov, Ye.E.Bertels, V.V.Bartold, Ye.Berezikov va boshqalarning mashaqqatli mehnatlarini alohida eʼtirof etish lozim. Ularning hammalari ham ibtidoiy jamoa davridagi maʼrifiy tafakkurning dastlabki kurtaklari folklorda oʻz aksini topgan, — degan xulosaga kelishgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Куръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Алоуддин Мансур. Тошкент: “Чўлпон” нашриёти. 1992й.

<sup>10</sup> [www.google.ru](http://www.google.ru) /xalq maqollari

<sup>11</sup> [www.ref.uz/download.php%3Fid%3D20800](http://www.ref.uz/download.php%3Fid%3D20800)

2. Кайковус “Қобуснома”.—Т.; “Ўқитувчи”, 1998.
3. Ўзбек халқ мақоллари.
4. Қодиров Т.Ш., Алиев Д.И. «Араб тили лексикологияси». Тошкент. 2010.
5. Қаҳҳоров А.С. Ал-Жоҳизнинг «Китаб ал-ҳайаван» асарида «Масал». Т. 1993й.
6. Жумаев З. “Ўзбек халқ тарихий ривоятлари” номзодлик диссертацияси. Т. 2005 й.
7. Носирова М. “Ўрта аср араб навҳидан намуналар” Тошкент – 2004.
8. Алиев Д., Тожибоева М., Дехқонова З. «Араб олами». Тошкент-2007.
9. Араб филологиясига кириш. Тошкент-2002.
10. آبيك , نوائى, ترجمة غائب تعمه فرمان, طشقند, ۱۹۷۹
11. الجاظ «كتاب الحيوان» ۲۸۶ص.ح-1